


## QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020-yil yanvar-aprel oylari uchun dastlabki ma'lumot)

Hozirgi kunda dunyoning deyarli barcha davlatlariga tarqalgan koronavirus (COVID-19) pandemiyasi xalqaro integratsiyaning kamayishiga hamda davlat chegaralarning yopilishiga sabab bo'ldi. Bu esa mamlakatning tashqi savdo sohasi hamda aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazmoqda.

2020-yil yanvar-aprel oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 175,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 70,4 mln. AQSh dollariga yoki 28,6 % ga kamaydi.

TASHQI SAVDO  
AYLANMASI  
VA BALANSI  
(yanvar-aprel,  
ming AQSh  
dollari)



Ma'lumot uchun: Qashqadaryo viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarini XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



TSA da eksport hajmi 70,7 mln. AQSh dollariga (25,6 % ga kamaydi) va import hajmi 104,9 mln. AQSh dollariga (30,6 % ga kamaydi) yetdi. Hisobot davrida –34,2 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

**TASHQI SAVDO  
AYLANMASI**  
(yanvar-aprel,  
ming AQSh  
dollari)



So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo`llab-quvvatlash, import o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o`zgarishga erishildi.

Qashqadaryo viloyati, jahonning 60 dan ortiq mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasi (26,5 %), Rossiya Federatsiyasi (10,8 %), Turkiya (8,9 %), Eron (7,3 %), Germaniya (6,4 %), Afg'oniston (5,1 %) va Qozog'iston (5,0 %) qayd etilgan.

**QASHQADARYO  
VILOYATI BILAN  
TASHQI SAVDO  
AYLANMASI ENG  
YUQORI  
ULUSHGA EGA  
BO`LGAN  
DAVLATLAR  
(2020-yil yanvar-  
aprel, ming  
AQSh dollari,  
ulushi,  
% da)**

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Xitoy Xalq Respublikasi	46 598,5	6 933,6	39 664,9	26,5
Rossiya Federatsiyasi	18 909,7	9 979,1	8 930,6	10,8
Turkiya	15 677,5	8 032,6	7 644,9	8,9
Eron	12 825,0	12 275,3	549,7	7,3
Germaniya	11 288,5	22,4	11 266,1	6,4
Afg`oniston	8 919,9	8 919,9	-	5,1
Qozog`iston	8 784,4	6 408,6	2 375,8	5,0
Hindiston	7 358,3	236,6	7 121,7	4,2
Indoneziya	5 888,7	5 888,7	-	3,4
AQSH	5 578,1	5,3	5 572,8	3,2

**QASHQADARYO  
VILOYATI BILAN  
TASHQI SAVDO  
AYLANMASI ENG  
YUQORI ULUSHGA  
EGA BO`LGAN  
DAVLATLAR  
(2020-yil yanvar-  
aprel, ming AQSh  
dollari, ulushi  
% da)**

Shuningdek, qo`shni davlatlar bilan o`zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko`rish mumkin.

Xususan, qo`shni davlatlar Qozog`iston va Qirg`iz Respublikalari bilan TSA da so`nggi yillarda katta o`zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so`nggi uch yilda TSA Qirg`iz Respublikasi, Tojikiston va Afg`oniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo`shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Xitoy, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo`yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan sakkizta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Rossiya Federatsiyasi (18 909,7 ming AQSh dollari), Turkiya (15 677,5 ming AQSh dollari), Eron (12 825,0 ming AQSh dollari), Afg`oniston (8 919,9 ming AQSh dollari), Qozog`iston (8 784,4 ming AQSh dollari), Indoneziya (5 888,7 ming AQSh dollari), Tojikiston (3 649,8 ming AQSH dollari) va Pokiston (3 236,6 ming AQSh dollari) shular jumlasidandir. Qolgan 12 ta davlatlar bilan passiv tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.

**QASHQADARYO  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-aprel,  
ming AQSh  
dollari)**

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
<b>Xitoy Xalq Respublikasi</b>	<b>57 120,2</b>	<b>88 734,2</b>	<b>46 598,5</b>
Eksport	40 165,3	12 489,0	6 933,6
Import	16 954,9	76 245,2	39 664,9
Saldo	23 210,4	-63 756,1	-32 731,3
<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>21 245,2</b>	<b>20 448,9</b>	<b>18 909,7</b>
Eksport	10 061,8	11 288,7	9 979,1
Import	11 183,4	9 160,2	8 930,6
Saldo	-1 121,6	2 128,5	1 048,5
<b>Turkiya</b>	<b>21 289,1</b>	<b>28 971,3</b>	<b>15 677,5</b>
Eksport	13 299,5	23 691,3	8 032,6
Import	7 989,5	5 280,0	7 644,9
Saldo	5 310,0	18 411,2	387,7
<b>Eron</b>	<b>5 663,6</b>	<b>13 974,6</b>	<b>12 825,0</b>
Eksport	5 504,6	13 428,8	12 275,3
Import	159,0	545,8	549,7
Saldo	5 345,6	12 883,1	11 725,6
<b>Germaniya</b>	<b>2 006,1</b>	<b>5 490,3</b>	<b>11 288,5</b>
Eksport	0,1	5,7	22,4
Import	2 006,0	5 484,6	11 266,1
Saldo	-2 005,9	-5 478,8	-11 243,6
<b>Afg'oniston</b>	<b>5 757,7</b>	<b>6 198,5</b>	<b>8 919,9</b>
Eksport	5 757,7	6 198,5	8 919,9
Import	-	-	-
Saldo	5 757,7	6 198,5	8 919,9
<b>Qozog'iston</b>	<b>12 053,4</b>	<b>17 644,6</b>	<b>8 784,4</b>
Eksport	6 786,7	7 579,7	6 408,6
Import	5 266,7	10 065,0	2 375,8
Saldo	1 520,0	-2 485,3	4 032,8

**QASHQADARYO  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-aprel,  
ming AQSh  
dollari)**


Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
<b>Hindiston</b>	<b>3 281,2</b>	<b>1 281,1</b>	<b>7 358,3</b>
Eksport	0,1	38,5	236,6
Import	3 281,1	1 242,6	7 121,7
Saldo	-3 281,0	-1 204,1	-6 885,2
<b>Indoneziya</b>	<b>9 314,4</b>	<b>5 592,6</b>	<b>5 888,7</b>
Eksport	9 314,4	5 592,6	5 888,7
Import	-	-	-
Saldo	9 314,4	5 592,6	5 888,7
<b>AQSH</b>	<b>2 322,6</b>	<b>776,9</b>	<b>5 578,1</b>
Eksport	21,1	3,8	5,3
Import	2 301,5	773,1	5 572,8
Saldo	-2 280,3	-769,2	-5 567,5
<b>Yaponiya</b>	<b>7 546,1</b>	<b>4 973,1</b>	<b>4 268,0</b>
Eksport	-	2,1	8,2
Import	7 546,1	4 971,0	4 259,8
Saldo	-7 546,1	-4 968,9	-4 251,6
<b>Belarus Respublikasi</b>	<b>544,0</b>	<b>788,7</b>	<b>3 809,1</b>
Eksport	90,8	82,4	67,7
Import	453,2	706,3	3 741,4
Saldo	-362,4	-624,0	-3 673,7
<b>Tojikiston</b>	<b>2 391,6</b>	<b>5 948,7</b>	<b>3 649,8</b>
Eksport	2 192,9	5 667,6	3 585,7
Import	198,6	281,0	64,1
Saldo	1 994,3	5 386,6	3 521,6
<b>Pokiston</b>	<b>1 528,3</b>	<b>1 328,5</b>	<b>3 236,6</b>
Eksport	1 510,7	898,8	3 217,8
Import	17,5	429,7	18,8
Saldo	1 493,2	469,1	3 199,0

**QASHQADARYO  
VILOYATINING  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
BILAN TASHQI  
SAVDO  
AYLANMASI  
DINAMIKASI  
(yanvar-aprel,  
ming AQSh  
dollari)**

Davlatlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.
<b>Avstraliya</b>	-	-	2 714,7
Eksport	-	-	-
Import	-	-	2 714,7
Saldo	-	-	-2 714,7
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	906,8	2 201,6	2 225,9
Eksport	550,2	2 194,0	1 075,2
Import	356,6	7,6	1 150,8
Saldo	193,6	2 186,5	-75,6
<b>Koreya Respublikasi</b>	25 145,9	4 596,7	1 795,1
Eksport	0,3	52,1	20,6
Import	25 145,6	4 544,6	1 774,5
Saldo	-25 145,3	-4 492,6	-1 753,9
<b>Litva</b>	306,9	2 068,0	1 415,1
Eksport	211,7	13,5	82,7
Import	95,2	2 054,5	1 332,4
Saldo	116,5	-2 041,1	-1 249,7
<b>Shevesariya</b>	63,4	111,5	1 359,6
Eksport	-	-	-
Import	63,4	111,5	1 359,6
Saldo	-63,4	-111,5	-1 359,6
<b>Italiya</b>	4 882,7	1 199,6	1 230,3
Eksport	-	-	-
Import	4 882,7	1 199,6	1 230,3
Saldo	-4 882,6	-1 199,6	-1 230,3

Viloyatimizda tashqi savdoni qoʻllab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash boʻyicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020-yil yanvar-aprel oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 22,4 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi oʻtgan yilga nisbatan ulushi 35,0 % ga kamaygan.

**QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-aprel, ming AQSh dollari, ulushi, % da)**



Boshqa xorijiy davlatlarning TSA si 2020-yil yanvar-aprel oylarida kamaydi (2019-yil shu davriga nisbatan 35,0 % ga kamaydi) va jami TSA dagi ulushi 77,6 % ni tashkil etdi.




## QASHQADARYO VILOYATINING EKSPORTI (2020-yil yanvar-aprel)


Hozirgi paytda yer yuzining deyarli barcha davlatlariga kirib borgan koronavirus (COVID-19) pandemiyasi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi, eksportning barqaror o`shishiga salbiy ta`sir ko`rsatmoqda va bu o`z navbatida ma`lum natijalarga erishishda to`siq bo`lmoqda.

Joriy yilning yanvar-aprel oylarida viloyatning eksportyorlar soni 211 tani tashkil etib, ular tomonidan 175,6 mln. AQSh dollari (2019-yilning mos davriga nisbatan 25,6 % ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishini ta`minladi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 97,4 %ni tashkil etib, ular asosan to`qimachilik buyumlari (16,3 %), oziq-ovqat mahsulotlari (14,6 %, aksariyat meva-sabzavot – 78,6 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (19,1 %), energiya manbalari (12,8 %), qora va rangli metall (0,2 %) hamda boshqalar (34,4 %) hissasiga to`g`ri kelmoqda.

**EKSPORT  
TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-aprel,  
ulushi, % da)**



 Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar - 14,6 %

 To`qimachilik buyumlari- 16,3 %

 Qora va rangli metallar-0,2 %

 Boshqa tovarlar - 34,4 %

 Energiya manbalari-12,8 %

 Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar - 19,1 %

 Xizmatlar - 2,6 %

	Tarkibi	Ming AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %		
		Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
	<b>Jami eksport</b>	<b>70 675,3</b>	<b>22 593,9</b>	<b>48 081,4</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
	shu jumladan:						
	<b>Paxta tolasi</b>	11 541,4	-	11 541,4	16,3	-	24,0
	<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	10 302,6	5 463,8	4 838,8	14,6	24,2	10,1
<b>MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI (2020-yil yanvar-aprel)</b>	<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	13 516,0	6 773,6	6 742,4	19,1	30,0	14,0
	<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	9 078,5	2 395,1	6 683,4	12,8	10,6	13,9
	<b>Qora metallar va undan tayyorlangan buyumlar</b>	115,4	115,4	-	0,2	0,5	-
	<b>Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari</b>	31,5	31,5	-	0,1	0,1	-
	<b>Xizmatlar</b>	1 835,0	1 275,4	559,6	2,6	5,6	1,2
	<b>Boshqalar</b>	24 254,9	6 539,1	17 715,8	34,3	29,0	36,8

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo`nalishi bo`yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlariga eksportning asosiy qismi xizmatlar hissasiga to`g`ri kelmoqda, keyingi o`rinlarda eksport hajmi bo`yicha asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar hamda turli xil tayyor buyumlarga to`g`ri kelmoqda.

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTINING  
O`SISH  
SUR`ATLARI  
(2020-yil  
yanvar-aprel)**

Tarkibi	2019-yilning mos davriga nisbatan, %		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>74,4</b>	<b>74,4</b>	<b>74,5</b>
shu jumladan:			
Paxta tolasi	125,0	-	125,4
Oziq-ovqat mahsulotlari	38,7	49,8	30,9
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	82,5	67,2	107,1
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	100,1	72,7	115,7
Qora metallar rangli va undan tayyorlangan buyumlar	39,8 m.	14,4 m.	-
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	13,7 m.	13,7 m.	-
Xizmatlar	94,7	92,9	99,1
Boshqalar	76,5	140,5	65,5


2020-yil yanvar-aprel oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko`rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o`zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta`kidlash joizki, 2019-yilning yanvar-apreliga nisbatan, mineral yoqilg`i, yog`lash moylari va shunga o`xshash materiallar, kimyo vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar hamda boshqa tovarlardan tashqari barcha tovar va xizmatlarda o`sish kuzatildi.

**EKSPORT  
TARKIBI  
DINAMIKASI  
(yanvar-aprel,  
% da)**

Tarkibi	ulushi, %		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Paxta tolasi	16,3	-	24,0
Oziq-ovqat mahsulotlari	14,6	24,2	10,1
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	19,1	30,0	14,0
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	12,8	10,6	13,9
Qora rangli metallar va undan tayyorlangan buyumlar	0,2	0,5	0,0
Mashina va asbob-uskunalar hamda ularning qismlari	0,1	0,1	0,0
Xizmatlar	2,6	5,6	1,2
Boshqalar	34,3	29,0	36,8


**MDH  
VA BOSHQA  
DAVLATLARGA  
TOVAR  
VA XIZMATLAR  
EKSPORTI  
HAJMLARI  
DINAMIKASI  
(yanvar-aprel,  
ming AQSh  
dollari,  
ulushi, % da)**

So`nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018-yil 1-choragidagi 20,1 % dan 2020-yil 1-choragida 32,0 % ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 68,0 % ni tashkil etdi.



2020-yilning yanvar-aprel oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo`yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Eron (eksport umumiy hajmining 17,4 % i), Rossiya Federatsiyasi (14,1 %), Afg`oniston (12,6 %) va Turkiya (11,4 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 55,5 foizni tashkil etmoqda.

**VILOYAT  
EKSPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR  
DAVLATLAR-  
NING ULUSHI  
(2020-yil  
yanvar-aprel)**




Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan etakchi bo'lgan Rossiya Federatsiyasining bir pog'onaga tushishi hisobiga, Eron eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiyasi 2019-yining mos davriga nisbatan 42 davlatdan 45 davlatga ko'paydi.

**QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-aprel)**

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
Eron	13 428,8	12 275,3	2,4 m.	91,4	2	1
Rossiya Federatsiyasi	11 288,7	9 979,1	112,2	88,4	4	2
Afg'oniston	6 198,5	8 919,9	107,7	143,9	6	3
Turkiya	23 691,3	8 032,6	178,1	33,9	1	4
Xitoy Xalq Respublikasi	12 489,0	6 933,6	31,1	55,5	3	5
Qozog'iston	7 579,7	6 408,6	111,7	84,5	5	6
Indoneziya	5 592,6	5 888,7	60,0	105,3	8	7
Tojikiston	5 667,6	3 585,7	2,6 m.	63,3	7	8
Pokiston	898,8	3 217,8	59,5	3,6 m.	11	9
Qirg'iz Respublikasi	2 194,0	1 075,2	4,0 m.	49,0	10	10
Ukraina	3 348,1	829,4	17,5 m.	24,8	9	11
Singapur	271,4	800,9	16,4	2,9 m.	13	12
Moldova	74,8	555,3	16,0	7,4 m.	16	13
Malayziya	429,7	433,0	-	100,8	12	14
Chexiya	279,2	278,0	2,4 m.	99,6	14	15
Filippin	-	251,9	-	-	18	16
Hindiston	38,5	236,6	43,3 m.	6,1 m.	19	17
Polsha	154,4	126,4	81,2	81,9	15	18
BAA	60,6	134,7	46,6	222,1	17	19
Misr	-	113,1	-	-	-	-

**XIZMATLAR  
EKSPORTI  
TARKIBI**  
(yanvar-aprel,  
ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi 1835,0 ming. AQSh dollarini yoki jami eksport hajmining 2,6 % ini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 5,3 % ga kamayganligi kuzatildi. So`nggi uch yilda o`shish hisobiga xizmatlarning jami eksportdagi ulushi o`sdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi transport (60,4 %) va moliyaviy (11,2 %) xizmatlari hissasiga to`g`ri kelgan. Shu bilan birga safarlar (8,8 %), qurilish xizmatlari (3,8 %), va boshqa xizmatlar umumiy hajmda 15,8 % ni tashkil etgan.

**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI  
EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo`lgan 8,1 mln. dollarga yaqin qiymatli 15,0 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019-yilning mos davriga nisbatan 15,7 mln. AQSh dollarida pastlashish kuzatilib, 33,1 % ga kamaydi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 6,3 mln. AQSh dollariga teng 13,1 ming tonna sabzavot, shuningdek, 1,8 mln. AQSh dollari qiymatidagi 1,8 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Rossiya Federatsiyasi (30,1 %), Qozog`iston (27,3 %), Afg`oniston (20,3 %) va Pokiston (18,2 %) davlatlari hissasiga to`g`ri kelgan.

**MEVA-  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARI  
EKSPORTI  
(2020 yil  
yanvar-aprel  
ming AQSh  
dollari)**



**Quritilgan sabzavotlar**

2,3 ming tonna  
2 763,7 ming AQSh dollari

**Karam**

5,2 ming tonna  
1 340,2 ming AQSh dollari

**Boshqa sabzavotlar**

0,9 ming tonna  
1 442,2 ming AQSh dollari

**Uzum**

0,9 ming tonna  
765,4 ming AQSh dollari

**Pamidor**

0,9 ming tonna  
627,1 ming AQSh dollari

Hukumat tomonidan qishloq xo`jaligi va bog`dorchilikni rivojlantirishga katta e`tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 11,4 % ni tashkil etdi.



**MEVA -  
SABZAVOT  
MAHSULOT-  
LARINING  
EKSPORT  
GEOGRAFIYASI  
(yanvar-aprel)**


Davlatlar	2019-yil			2020-yil		
	ming tonna	ming AQSh dollari	ulushi *, % da	ming tonna	ming AQSh dollari	ulushi *, % da
Rossiya Federatsiyasi	5 826,5	2 244,9	9,4	6 659,1	2 448,8	30,1
Qozog'iston	4 108,5	1 661,9	7,0	3 848,0	2 216,9	27,3
Afg'oniston	280,7	215,8	0,9	2 934,6	1 646,1	20,3
Pokiston	24,0	14,6	0,1	1 168,5	1 476,9	18,2
BAA	22,1	60,6	0,3	44,6	134,6	1,7
Xitoy	51,1	55,8	0,2	51,6	51,6	0,6
Qirg'iz Respublikasi	90,5	1 388,5	5,8	73,4	45,7	0,6
Turkiya	2 003,6	14 083,6	59,3	22,0	24,2	0,3
Eron	138,0	138,0	0,6	23,0	23,0	0,3
Iroq	189,7	185,3	0,8	20,4	20,4	0,3
Ukraina	1 019,5	3 247,4	13,7	54,3	17,6	0,2
Belarus Respublikasi	-	-	-	66,1	10,1	0,1
Moldova	-	-	-	15,0	9,0	0,1
Ozorbayjon	21,8	28,2	0,1	-	-	-
Bolgariya	67,5	314,2	1,3	-	-	-
Kipr	23,1	3,9	-	-	-	-
Boshqa davlatlar	605,4	108,6	0,4	-	-	-

\*-qiymat ifodasidan


## QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI (2020-yil yanvar-aprel)

2020-yil yanvar-aprel oylarida import hajmi koronavirus (COVID-19) pandemiyasi sababli pasayishini kuzatish mumkin. Jumladan, hisobot davrida import hajmi 104,9 mln. AQSh dollarini va 2019-yilning mos davriga nisbatan 69,4% ni tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (72,6) hisobiga to'g'ri keldi.



**XSST BO`LIMI  
BO`YICHA  
IMPORT TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-aprel,  
ulushi, % da)**



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020-yil yanvar-aprelida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 46,2 mln. AQSh dollariga kamaydi va 104,9 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 0,02 mln. AQSh dollariga yetdi.

**MDH  
VA BOSHQA  
XORIJIY  
DAVLATLARDAN  
IMPORT TARKIBI  
(2020-yil  
yanvar-aprel)**

Tarkibi	ming AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, %		
	Jami	MDH davlatlar	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlar	Boshqa davlatlar
<b>Jami import</b>	<b>104 930,6</b>	<b>16 787,9</b>	<b>88 142,7</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:						
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari</b>	1 990,7	1 327,4	663,3	1,9	7,9	0,8
<b>Kimyo mahsulotlari va buyumlari</b>	11 397,8	2 418,6	8 979,2	10,9	14,4	10,2
<b>Energiya manbalari va neft mahsulotlari</b>	3 687,8	3 602,8	85,0	3,5	21,5	0,1
<b>Qora va rangli metallar va ulardan yasalgan buyumlar</b>	4 108,0	489,3	3 618,7	3,9	2,9	4,1
<b>Mashina va asbob-uskunalar</b>	76 176,7	5 902,4	70 274,3	72,6	35,2	79,7
<b>Xizmatlar</b>	23,1	22,7	0,4	0,1	0,1	-
<b>Boshqalar</b>	7 546,5	3 024,7	4 521,8	7,1	18,0	5,1

Importning eng katta ulushi, jumladan, Mashina va asbob-uskunalar (35,2 %), Energiya manbalari va neft mahsulotlari (21,5 %) hamda Kimyo mahsulotlari va buyumlari (14,4 %) MDH mamlakatlariga to`g`ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunolari (79,7 %) va kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o`xshash mahsulotlar (10,2 %), hissasiga to`g`ri keladi.

**MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN IMPORTNING O`ZGARISH SUR'ATLARI (2020-yil yanvar-aprel)**

XSST tarkibi	2019-yil yanvar-apreliga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
<b>Jami</b>	<b>69,4</b>	<b>55,6</b>	<b>72,9</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari	24,8	23,2	28,7
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	52,1	33,9	60,8
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	94,6	94,8	87,1
Qora va Rangli metallar va ulardan yasalgan buyumlar	74,7	11,6	2,8 m.
Mashina va asbob-uskunalar	78,3	124,5	75,9
Xizmatlar	166,2	-	2,9
Boshqalar	52,3	66,1	45,9

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko`rsatdiki, 2019-yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar importining ulushi 5,3 % dan 1,9 % gacha kamaydi.

**IMPORT TARKIBI DINAMIKASI (2020-yil yanvar-aprel, ulushi, % da)**

Tarkibi	2018 y.	2019 y.	2020 y.
<b>Jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari	1,9	7,9	0,8
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	10,9	14,4	10,2
Energiya manbalari va neft mahsulotlari	3,5	21,5	0,1
Qora va Rangli metallar va ulardan yasalgan buyumlar	3,9	2,9	4,1
Mashina va asbob-uskunalar	72,6	35,2	79,7
Xizmatlar	0,1	0,1	-
Boshqalar	7,1	18,0	5,1


Hisobot davri yakunlariga ko`ra, import bo`yicha hamkor davlatlar orasida Xitoy Xalq Respublikasi umumiy import hajmida 20,2 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (19,3 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o`rinni egalladi.

**TOVAR  
VA XIZMATLAR  
IMPORTIDAGI  
YIGIRMATA  
YIRIK HAMKOR  
DAVLATLAR  
(yanvar-aprel)**

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O`shish sur`ati, % da		O`rni	
	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.	2019-y.	2020-y.
Xitoy Xalq Respublikasi	76 245,0	39 665,0	4,5 m.	52,0	1	1
Germaniya	5 484,6	11 266,0	2,7 m.	2,1 m.	5	2
Rossiya Federatsiyasi	9 160,2	8 930,6	81,9	97,5	3	3
Turkiya	5 280,0	7 644,9	66,1	144,8	6	4
Hindiston	1 242,6	7 121,7	37,9	5,7 m.	10	5
AQSH	773,1	5 572,8	33,6	7,2 m.	13	6
Yaponiya	4 971,0	4 259,8	65,9	85,7	7	7
Belarus Respublikasi	706,3	3 741,4	155,9	5,3 m.	15	8
Avstraliya	-	2 714,7	-	-	19	9
Qozog`iston	10 065,0	2 375,8	191,1	23,6	2	10
Janubiy Koreya	4 544,6	1 774,5	18,1	39,0	8	11
Litva	111,5	1 359,6	175,9	12,2 m.	17	12
Shveysariya	2 054,5	1 332,4	21,6 m.	64,9	9	13
Italiya	1 199,6	1 230,3	24,6	102,6	11	14
Latviya	7,6	1 150,8	2,1	15,2 m.	18	15
Qirg`iz Respublikasi	-	844,3	-	-	20	16
Braziliya	715,9	622,7	184,4	87,0	14	17
Kanada	545,8	549,7	3,4 m.	100,7	16	18
Eron	5 603,3	362,0	98,4 m.	6,5	4	19
Buyuk Britaniya	802,4	361,0	78,7	45,0	12	20

2019-yil bilan taqqoslaganda import bo`yicha eng yuqori oltilikda o`zgarish kuzatilmadi. 2020-yil yanvar-aprel oylari yakuni bo`yicha Qashqadaryo viloyati tomonidan 43 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.

**TOVAR  
VA XIZMATLAR  
IMPORTIDA  
ASOSIY  
HAMKOR-  
DAVLATLAR  
DINAMIKASI  
(yanvar-aprel)**



Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy, Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Hindiston, AQSH va Yaponiya) jami importning 80,5 % ini tashkil qiladi, bu 84,5 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Mamlakatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Xitoy, Germaniya, Rossiya, Turkiya tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

Shu o`rinda ta`kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan qurilish mahsulotlari importi o`rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon qurilish materiallari bilan ta`minlash bo`yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi  
Tel.:75-221-44-28**